

USTYURT PLATOSI SHAROITIDA QORA RANGLI QORAKO'L QO'YLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Berdisheva Gulayim Abishovna

gulayimberdisheva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22762206>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Kirish.

Qorako'l qo'ylari biologiyasi bu mahsuldorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi majmuaviy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ularning asosiy biologik xususiyatlariga serpushtligi, hayotchanligi, o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari, fiziologik holati shular jumlasidandir. Hayvonlarni saqlashda hosildor yaylovlardan foydalanish ularning jinsiy funksiyalarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilishi, hayvonlarni erta muddatlarda urug'lantirishda va yuqori serpushtlikka yordam beradi [54.B.5-9].

Qo'ylarni yaylov sharoitida saqlash texnologiyasida ularni qochirish muddatlari ham ahamiyatli hisoblanib, erta qochirilgan qo'ylar organizmida yuqori serpushtlikka yordam beradigan ma'lum miqdordagi ozuqa moddalari va vitaminlar zaxirasini to'plashi taqiqlanadi. Ko'p sonli tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, qora rangli qo'ylar konstitutsiya jihatidan baquvvat bo'ladi, ko'k rangli qorako'l qo'ylari esa, o'zlarining biologik xususiyatlariga ko'ra hayotchanligi pastroq bo'ladi degan fikrni olg'a suradi. [60.B.81-82]. fikricha, bunday holat sut rangli qo'ylarda ham kuzatiladi va sur qo'ylari qora qo'ylarga nisbatan konstitutsiyasining biroz zaifligi bilan ajralib turadi, sur qo'ylarni ko'paytirishda saqlash sharoitlarini yaxshilash, hosildor yaylovlar ajratish orqali yuqori natijaga erishish mumkin.

Material va metodlar. Tajriba guruhlaridagi qora rangdagi qorako'l qo'ylarini tanlash asosida, konstitutsiya tiplarini hisobga olingan holda analoglar prinsipiga muvofiq amalga oshirildi. Tajribadagi qorako'l qo'ylari o'ziga xos tashqi kamchiliklarsiz belgilari mahalliy, tabiiy va ozuqa sharoitlariga moslashuvchanligi inobatga olindi va sog'ligi bo'yicha veterinariya ko'rigidan o'tkazildi. Bugungi kunda qorako'l qo'ylarining o'zidan nasl qoldirish qobiliyati, ularning serpushtligi va hayotchanligi bilan ma'lum darajada bog'likdir.

Shu munosabat bilan qora rangli qorako'l qo'ylarining serpushtlikligi va hayotchanligini konstitutsiya tiplari orasida o'rganish bizning maqsad qilib belgilangan. Biz o'z tadqiqotlarimizda ushbu qo'yilgan maqsadning dolzarbligini hisobga olgan holda va ungacha erishish uchun qo'ylarning serpushtligi va hayotchanligi ustida tadqiqotlar olib borildi va olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

Natijalar va ularning tahlili. 1-jadval ma'lumotlarida tajriba natijalari bo'yicha tahlil qilsak, Ustyurtning shimoliy hududi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich barcha tipga mansub qo'ylarda qochirimga qo'yilgan qo'ylar 127 bosh soni tashkil qilib ulardan olingan qo'zilar 121 boshni tashkil qildi. Konstitutsiya tiplari orasida farqlanishlar kuzatilib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha dag'al tipga mansub qo'ylarda 45-bosh qo'ydan 43 bosh qo'zi olindi va mustahkam tipga ega qo'ylardan 65-boshdan 62 bosh qo'zi va nozik tipga mansub qo'ylardan esa, 17-boshdan 16 bosh qo'zi olindi. O'lik tug'ilgan qo'zilar salmog'i dag'al tipda 4,4 %, mustahkam tipda 4,6 % va nozik tipdagilarda 5,9 %-ni tashkil qildi. Ustyurtning shimoliy hududi bo'yicha o'lik tug'ilishlar ulushi jami 4,7 %-ni tashkil qildi. Ushbu hududda egiz tug'ilishlar soni jami 9,4 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, dag'al tipga mansub qo'ylar ulushi ushbu ko'rsatkich bo'yicha 8,9 %, mustahkam tipga mansub

qoylarda esa, 10,8 % va nozik tipdagilarda 5,9 %-ni tashkil qildi. Hudud buyicha egizlik darajasi 100 bosh qo'y uchun o'rtacha konstitutsiya tiplari bo'yicha 103,9 %-ga teng bo'ldi.

Orol bo'yi hududlari Ustyurtning shimoliy hududi va Ustyurtning janubiy hududlariga nisbatan yaylov hosildorligi va iqlim sharoiti bo'yicha biroz og'ir hudud hisoblanadi. Ushbu hududdan olingan ma'lumotlarda o'rtacha ko'rsatkich barcha tipga mansub qo'ylarda qochirimga qo'yilgan qoylar 98 bosh soni tashkil qilib ulardan olingan qo'zilar 92 boshni tashkil qildi.

Konstitutsiya tiplari orasida farqlanishlar kuzatilib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha dag'al tipga mansub qo'ylarda 37-bosh qo'ydin 34 bosh qo'zi olindi va mustahkam tipga ega qo'ylardan 46-boshdan 44 bosh qo'zi va nozik tipga mansub qo'ylardan esa, 15-boshdan 14 bosh qo'zi olindi. O'lik tug'ilgan qo'zilar salmog'i dag'al tipda 8,1 %, mustahkam tipda 4,3 % va nozik tipdagilarda 6,7 %-ni tashkil qildi. Orol bo'yi hududlari hududi bo'yicha o'lik tug'ilishlar ulushi jami 6,1 %-ni tashkil qildi. Ushbu hududda egiz tug'ilishlar soni jami 7,1 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, dag'al tipga mansub qo'ylar ulushi ushbu ko'rsatkich bo'yicha 8,1 %, mustahkam tipga mansub qo'ylarda esa, 6,5 % va nozik tipdagilarda 6,7 %-ni tashkil qildi. Hudud bo'yicha egizlik darajasi 100 bosh qo'y uchun o'rtacha konstitutsiya tiplari bo'yicha 101,0 %-ga teng bo'ldi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytsak, qora rangdagi qorako'l qo'ylarining Ustyurt platosi sharoitida serpushtliklik darajasi hududlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 104,1 %-ni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkichlar konstitutsiya tiplari orasida farq kuzatildi. Dag'al tipga mansub qo'ylar o'zining serpushtliklik darajasini barcha hududlarda namoyon qilgan holda, ushbu ko'rsatkich bo'yicha mustahkam tipga mansub qo'ylar oraliq o'rinni egalladi. Shuni qat'iyon ta'kidlash lozimki nozik tipdagilar Ustyurtning shimoliy hududida serpushtliklik darajasi ancha past ko'rsatkichga (100,0 %) ega bo'lib, Ustyurtning janubiy hududida ushbu ko'rsatkich 104,5 %-ga tenglashdi. Aytish mumkinki, qo'ylar konstitutsiyasining dag'allashuvi keskin iqlim sharoitga moslashuvchanligi isbotlangan holda, nozik tipga mansub qo'ylarga ko'proq yumshoq iqlimli sharoit to'g'ri kelishi dalillandi.

Serpustliklik darajasi

Yaylov hududlari	Qochirimga qo'yildi, bosh	Ko'rsatkichlar							
		Olingan qo'zilar, bosh soni	%-da	O'lik tug'ilganlar, bosh soni	%-da	Egiz tuqqanlar, bosh soni	%-da	Jami olingan qo'zi, bosh	100 bosh qo'yga serpushtliklik darajasi, %
Ustyurtning shimoliy hududi	Dag'al, n=45	43	95,6	2	4,4	4	8,9	47	104,4
	Mustahkam, n=65	62	95,4	3	4,6	7	10,8	68	106,2
	Nozik, n=17	16	94,1	1	5,9	1	5,9	17	100,0
Jami hudud bo'yicha	n=127	121	95,3	6	4,7	12	9,4	132	103,9
Orol bo'yi hududlari	Dag'al, n=37	34	91,9	3	8,1	3	8,1	37	100,0
	Mustahkam, n=46	44	95,7	2	4,3	3	6,5	47	102,2
	Nozik, n=15	14	93,3	1	6,7	1	6,7	15	100,0
Jami hudud bo'yicha	n=98	92	93,9	6	6,1	7	7,1	99	101,0

Ustyurnin g janubiy hududi	Dag'al, n=45	44	97, 8	1	2, 2	4	8,9	48	106,7
	Mustahka m, n=69	68	98, 6	1	1, 4	6	8,7	74	107,2
	Nozik, n=22	21	95, 5	1	4, 5	2	9,1	23	104,5
Jami hudud bo'yicha	n=136	133	97, 8	3	2, 2	12	8,8	145	106,6
Barcha hududlar bo'yicha	361	346	95, 8	15	4, 2	31	8,6	376	104,1

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Gaziyeu. A., Fazilov. T., Yusupov. S. Qora rangli qorako'l qo'ylarda ayrim seleksion belgilarning namoyon bo'lishi xususiyatlari. Zooveterenariya jurnali. 2017. 8-son. 35-36 betlar.
2. Ismailov M. Qorako'lchilik maxsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish biologik va tashkiliy zootexnik omillar. Agroilim jurnali. 2016.5-son.24-27 b.
3. <https://bigenc.ru/agriculture>.
4. <http://uz.wikipedia.org/w/index>.
5. <http://myfarm-online.ru/ovcevodstvo>.